| <b>Muzafarov Muxammadali Maxsudovich</b>                                                                                                                                |     |
| Talabalarda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanib kasbiy madaniyatini rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar (boshlang'ich ta'limda tarbiya fani misolida) ..... | 187 |
| <b>Yadgarova Surayyo</b>                                                                                                                                                |     |
| Maktab o'quvchilariga pedagogik ta'sir ko'rsatishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish .....                                                      | 190 |
| <b>Yo'ldoshova Shahlo Shukurullo qizi</b>                                                                                                                               |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy tahlili .....                                       | 194 |
| <b>Yusupova Sanobar Odil qizi</b>                                                                                                                                       |     |
| Типология научного текста: от жанровой классификации к дискурсивной модели .....                                                                                        | 197 |
| <b>Бахтияр Катибжанович Саттаров</b>                                                                                                                                    |     |
| Взаимодействие педагога и семьи в профилактике и преодолении стресса у детей дошкольного возраста .....                                                                 | 201 |
| <b>Г. С. Алиходжаева, Х. Рахимова</b>                                                                                                                                   |     |
| Условия эффективности инклюзивного образования .....                                                                                                                    | 206 |
| <b>Г. С. Алиходжаева, Л. О. Бекмуродова</b>                                                                                                                             |     |
| Педагогическая готовность к обучению в школе детей билингов .....                                                                                                       | 211 |
| <b>Г. С. Алиходжаева, Н. А. Ганиева</b>                                                                                                                                 |     |
| Педагогические условия формирования эмоционального интеллекта у дошкольников .....                                                                                      | 216 |
| <b>Джалилова Феруза Намазовна</b>                                                                                                                                       |     |
| Milliy meros va musiqiy madaniyatning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni .....                                                                                              | 219 |
| <b>Zuhriddin Azizov</b>                                                                                                                                                 |     |
| Госпитальная школа как пространство поддержки и развития ребёнка (на примере госпитальной школы при детской клиники Синсиннати, США) .....                              | 222 |
| <b>Муминов Р. Р., Хакимова Н. Х., Набиева Г. Г.</b>                                                                                                                     |     |
| Интерактивные формы работы в процессе профориентации детей дошкольного возраста .....                                                                                   | 227 |
| <b>Н. Т. Жураева, С. М. Ахмеджанова</b>                                                                                                                                 |     |
| Samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlashga oid yondashuvlar .....                                                                                                   | 231 |
| <b>Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna</b>                                                                                                                                      |     |



## BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI TERMINLARINI TARJIMA QILISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI



D. J. Norboyeva

SamSI O'zbek tili va adabiyoti kafedrası  
katta o'qituvchisi

ORCID: 0000-0003-2372-7774

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshqaruv psixologiyasi sohasida qo'llaniladigan terminlarning tarjima jarayoni, ularning lingvistik va psixologik xususiyatlari, shuningdek, tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Boshqaruv psixologiyasi terminlarining semantik aniqligi, madaniy moslashuvi va funksional ekvivalentligi masalalari yoritiladi. Tarjimachilik amaliyotini hamda terminologiyani leksikografik jihatdan ishlab chiqishni takomillashtirish bo'yicha takliflar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** boshqaruv psixologiyasi; terminologiya; tarjima; leksikografiya; o'zbek tili; rus tili; ekvivalentlik.

**Abstract:** In this article, the process of translating terms used in the field of management psychology, their linguistic and psychological characteristics, as well as the problems that arise in the course of translation are analyzed from a scientific perspective. Issues of semantic accuracy, cultural adaptation, and functional equivalence of management psychology terms are examined. Proposals are presented for improving translation practice and the lexicographic development of terminology.

**Key words:** management psychology; terminology; translation; lexicography; Uzbek language; Russian language; equivalence.

**Аннотация:** В данной статье с научной точки зрения анализируются процесс перевода терминов, применяемых в области психологии управления, их лингвистические и психологические особенности, а также проблемы, возникающие в ходе перевода. Освещаются вопросы семантической точности, культурной адаптации и функциональной эквивалентности терминов психологии управления. Представлены предложения по совершенствованию переводческой практики и лексикографической разработки терминологии.

**Ключевые слова:** психология управления; терминология; перевод; лексикография; узбекский язык; русский язык; эквивалентность.

### KIRISH

Hozirgi globallashuv va ilm-fan integratsiyasi sharoitida boshqaruv psixologiyasi fanining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Boshqaruv psixologiyasi – rahbarlik, jamoa boshqaruvi, motivatsiya, qaror qabul qilish va tashkilot xulq-atvorini o'rganuvchi fan sohasi. Ilmiy fan sifatida boshqaruv psixologiyasi O'zbekistonda faol rivojlanmoqda, bu esa professional va ilmiy diskursning kengayishiga xizmat qilmoqda <sup>[1, 67]</sup>. Bu sohada rus tilida shakllangan ilmiy terminlar o'zbek tiliga tarjima qilinayotganda lingvistik, semantik va madaniy muammolar yuzaga keladi. Tarjima sifati esa ilmiy muloqot va ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Biroq turli tillar tizimida ixtisoslashgan atamalarni yetkazish va tavsiflash bir qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Rus tili o'zining boy ilmiy an'analari bilan ushbu sohada shakllangan terminologik bazaga ega. O'zbek tili esa faol modernizatsiya va lotin yozuviga o'tish jarayonida bo'lganligi sababli, ayniqsa kognitiv psixologiya, neyromenejment va boshqaruv xulq-atvori kabi yangi sohalarida barqaror terminlarga ehtiyoj sezilmoqda. Globallashuv va xalqaro ilmiy almashinuv sharoitida terminlarni aniq tarjima qilish muhimligi beqiyos darajada ahamiyatga ega. Ilmiy va kasbiy diskursning asosiy birligi sifatida termin imkon qadar aniq, bir ma'noli va turli tillarda universal tarzda tushunarli bo'lishi kerak. Biroq amaliyotda terminlarni tarjima qilish lingvistik va ekstra-lingvistik omillar bilan bog'liq bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Boshqaruv psixologiyasi terminlari o'zbek va rus tillarida morfologik hamda semantik o'xshashliklarga ega. Ko'pgina hollarda xalqaro terminlar (motivatsiya, liderlik, transformatsion menejment) har ikki tilda bir xil tarzda qo'llaniladi. Biroq ayrim terminlarda ekvivalentlik darajasi past bo'lib, tarjima jarayonida noaniqliklar yuzaga keladi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Termin – muayyan fan, texnika yoki kasbiy faoliyat sohasiga oid aniq tushunchani ifodalovchi maxsus til birligidir. Terminologiya esa muayyan soha terminlarining tizimli majmuasidir. Lingvistik jihatdan terminlar aniqlik, barqarorlik va bir ma'nolilik xususiyatlariga ega bo'lishi lozim. Terminologiya – bu muayyan kasbiy sohada qo'llaniladigan maxsus so'zlar va iboralar tizimidir.

V. P. Danilenkoning ta'kidlashicha, termin bir ma'noli, tizimli tashkil etilgan va takror ishlab chiqariladigan bo'lishi kerak <sup>[1, 68]</sup>.

O. Vinokurning fikricha, termin har doim aniq va ravshan bo'ladi, terminlar sistemasi esa tili ongli ravishda shakllantiriladi. Zero, termin o'z-o'zidan, stixiyali tarzda paydo bo'lmaydi, balki uning zarurligi va jamiyatda unga ehtiyoj mavjudligi bois yaratiladi <sup>[2, 5]</sup>.

Boshqaruv psixologiyasi doirasida bu ayniqsa muhim, chunki ushbu fan abstrakt va murakkab tushunchalar bilan ishlaydi. Terminlar tizimlilik, sohaga doir bir ma'nolilik, uslubiy neytrallik hamda qo'llanishdagi barqarorlik kabi xususiyatlarga ega bo'ladi. Terminlar oddiy so'zlardan farq qiladi, chunki ular muayyan soha doirasida cheklangan holda qo'llaniladi. Eng keng tarqalgan muammolardan biri boshqa tilda terminning to'g'ridan-to'g'ri muqobilining yo'qligidir. Bu holat yangi ilmiy yo'nalishlar, yuqori texnologik sohalar va madaniy jihatdan o'ziga xos tushunchalar uchun xosdir. Masalan, rus tilidagi “самоэффективность” (psixologiyaga oid atama) o'zbek tilida aniq muqobilga ega emas va ko'pincha “o'ziga bo'lgan ishonch” deb tarjima qilinadi, bu esa asl ma'nodagi ayrim nozik jihatlarning yo'qolishiga olib keladi. Bunday hollarda tavsiflovchi tarjima yoki moslashtirilgan iqtibosdan foydalaniladi <sup>[2, 89]</sup>.

Ko'plab terminlar turli kontekstlarda bir nechta ma'noga ega bo'lishi mumkin, bu esa zarur ekvivalentni tanlashda qiyinchilik tug'diradi. Masalan, “monitoring” termini kontekstga qarab “kuzatuv”, “nazorat” yoki “tizim holatini monitoring qilish” ma'nolarini anglatishi mumkin. Bunday hollarda kasbiy kontekstga tayanish va tor sohalarga ixtisoslashgan lug'atlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, amaliyotda o'zbek va rus tillaridagi terminlarning qiyosiy-taqqoslovchi tahlili, ko'p darajali tushunchalarning leksik-semantik tahlili, ekvivalentlarni aniqlashga qaratilgan tarjima modellashtiruvchi hamda O'zbekiston va MDH davlatlari oliy ta'lim muassasalarida foydalaniladigan ikki tilli lug'atlar va o'quv materiallarini tahlil qilish kabi usullar qo'llaniladi <sup>[3, 109]</sup>.

Boshqaruv psixologiyasi liderlikning psixologik jihatlari, motivatsiya nazariyalari, guruh dinamikasi, tashkilot madaniyati, emotsional intellekt hamda stress holatlarida qaror qabul qilish bilan bog'liq tushunchalarni qamrab oladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tarjima jarayoni, birinchi navbatda, termin ma'nosini aniqlash va tarjima qilish bilan boshlanadi: avvalo ruscha terminning ilmiy mazmuni, kelib chiqishi va boshqa fanlar bilan bog'liqligi aniqlanadi (psixologiya, menejment, sotsiologiya). Keyingi bosqich ekvivalent izlash asosida amalga oshiriladi: o'zbek tilida mavjud muqobil termin topiladi, agar mavjud bo'lmasa, yangi termin yaratiladi yoki izohli tarjima beriladi.

Tarjima usullari:

- so'zma-so'z tarjima – руководство → rahbarlik;
- ma'nodoshlik asosida – управленческая деятельность → boshqaruv faoliyati;
- transliteratsiya – мотивация → motivatsiya;
- izohli tarjima – организационное поведение → tashkilot doirasidagi xulq-atvor.

Ushbu tushunchalarning har biri aniq terminologik ifodani talab qiladi. Jarayondagi asosiy muammolar quyidagilar: to'liq ekvivalentning yo'qligi, ba'zi ruscha terminlarning o'zbek tilida aniq muqobilining mavjud emasligi. Masalan, рефлексия – “refleksiya” deb olinadi, biroq izoh talab qiladi. Yoki bir termin – bir nechta tarjima holati kuzatiladi, ya'ni turli manbalarda bir termin turlicha tarjima qilinadi: управленческое мышление → “boshqaruv tafakkuri”, “rahbarlik fikrlashi”.

Rus tilining ta'siri (kalkalash) natijasida ba'zan ruscha tuzilma o'zbek tiliga sun'iy ko'chiriladi: принятие решения → “qaror qabul qilish” (to'g'ri), ammo ayrim hollarda sintaksis o'zbekcha me'yorlarga zid bo'ladi. Termin va umumiy so'z chegarasining noaniqligi ham muammo tug'diradi. Masalan, контроль – “nazorat” (ilmiy terminmi yoki umumiy so'zmi?). Yangi terminlarning standartlashmaganligi, ilmiy lug'atlar va yagona terminologik standartning yetishmasligi ushbu muammoni kuchaytiradi.

Atamalarni so'zma-so'z (bukval) tarjima qilish ko'pincha tarjima qilinayotgan tilning grammatik va madaniy o'ziga xosliklarini hisobga olmaydi, bu esa termini noaniq yoki tabiiy bo'lmagan shaklda namoyon qiladi. Ingliz tilidagi feedback atamasi ko'pincha rus tilida “обратная связь” tarzida kalkalanadi, bu rus tilida qabul qilingan <sup>[3, 102-103]</sup>.





Biroq boshqa tillarda bukval tarjima termin sifatida qabul qilinmasligi mumkin. Zarur hollarda moslashtirish yo'li bilan termin izoh bilan kiritiladi.

Boshqaruv psixologiyasidagi ko'plab terminlar o'zbek va rus tillarida bevosita ekvivalentga ega. Masalan, "motivatsiya – мотивация", "liderlik – лидерство", "stress – стресс" kabi terminlar morfologik va semantik jihatdan mos keladi. Biroq ayrim terminlar faqat qisman ekvivalent bo'lib, kontekstga qarab turlicha tarjima qilinadi. Masalan, "liderlik" rus tilida ba'zan "руководство" sifatida tarjima qilinadi, ammo uni "лидерство" (liderlik) tushunchasidan farqlash lozim.

"Raqamli charchoq" (digital fatigue) zamonaviy termin bo'lib, rus tilida bir nechta sinonimik ifodalar mavjud: "техностресс", "информационное утомление", "цифровое переутомление".

Hatto tilda ekvivalent termin mavjud bo'lsa ham, u boshqa terminologik tizimga mansub bo'lishi va o'ziga xos bog'liqliklar hamda konnotatsiyalarga ega bo'lishi mumkin. "Liderlik" (leadership) termini g'arbiy an'anada mustaqil sifat sifatida talqin qilinsa, postsovet boshqaruv madaniyatida ko'pincha avtoritar tizimning bir qismi sifatida qabul qilinadi [5, 99-103].

Madaniyatga mos tarjimani qo'llash va ma'nolarni aniqlashtirish muhimdir. Bu farqlar qiyosiy-leksikografik tahlilda yaqqol ko'rsatiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Terminlar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- **to'liq ekvivalentlar** – morfologik va semantik jihatdan ikkala tilda ham o'xshash bo'ladi: motivatsiya – мотивация;
- **nisbiy ekvivalentlar** – faqat semantik jihatdan o'xshash, shakl jihatdan farq qiladi: rahbarlik – руководство;
- **ekvivalentsiz terminlar** – o'zbek tilida nisbatan yangi bo'lib, rus tilida sinonimik birliklar orqali ifodalanadi: digital fatigue – цифровая усталость.

Ba'zi tillarda (shu jumladan o'zbek tilida ham) o'ziga xos terminlar yetishmasligi sababli ingliz yoki rus tillaridan keng miqyosda iqtiboslar olinadi. Bu esa fonetika, morfologiya va qabul qilish jarayonida muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, manager, outsourcing, benchmarking kabi terminlar til qoidalariga zid tarzda qabul qilinib, o'qishni qiyinlashtiradi. Shu sababli ona tilimizda terminologiyani izchil rivojlantirib, haqiqiy o'zbekcha ekvivalentlarni yaratish lozim.

### 1-jadval: Tarjimachilik strategiyalarining tasnifi

| Strategiya                              | Misol                                                     | Izoh                                              |
|-----------------------------------------|-----------------------------------------------------------|---------------------------------------------------|
| To'g'ridan-to'g'ri tarjima (ekvivalent) | temperature – температура                                 | Barqaror termin mavjud bo'lsa qo'llaniladi        |
| Kalkalash                               | brain drain – miya oqimi                                  | Agar kalkalash tushunarli bo'lsa mos keladi       |
| Tavsiflovchi tarjima                    | outsourcing – funksiyalarni tashqi tashkilotga topshirish | Ekvivalent bo'lmaganda qo'llaniladi               |
| Iqtibos olish                           | marketing → marketing                                     | Keng tarqalgan, lekin moslashtirish talab etiladi |
| Kombinatsiyalangan tarjima              | leadership – liderlik / boshchilik                        | O'quv adabiyotlarda ko'p ishlatiladi              |

Mutaxassislik lug'atlari misollar va kontekstlar bilan ta'minlab, xatoliklarni oldini olish va tarjima aniqligini oshirish imkonini beradi. Sifatli tarjima professional tayyorgarliksiz imkonsizdir. Kurslar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- terminologiya asoslari;
- fan sohasiga oid tayyorgarlik;
- kontekstni hisobga olgan holda tarjima amaliyoti [6, 234].

Milliy korpuslarda terminlar ishlatilishini tahlil qilish (masalan, Rossiya milliy korpusi, O'zbek tilining milliy korpusi) terminlarning ma'nosini va tarqalishini aniqlashtirishga yordam beradi. Madaniy kontekst terminlarni qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, "xarizma" tushunchasi rus biznes madaniyatida ko'proq liderlik bilan bog'lanadi, o'zbek madaniyatida esa bu shaxsiy joziba sifatida qabul qilinishi mumkin, boshqaruv bilan bog'liq bo'lishi shart emas.



Ingliz tilidan so'zma-so'z haddan tashqari kalkalash (masalan, emotional burnout → emosional kuyish) noto'g'ri yoki tabiiy bo'lmagan, keng auditoriya uchun tushunarsiz ifodalar paydo bo'lishiga olib keladi [7, 123]. Shu sababli, o'zbek tilining an'anaviy asoslariga tayangan holda terminlar ishlab chiqilishi zarur.

Turli o'quv qo'llanmalar va lug'atlarda bir xil terminning turlicha tarjimalari uchraydi. Masalan, organizational behavior terminlari tashkiliy xulq-atvor, tashkiliy munosabat, korxona psixologiyasi kabi turli aspektlarni ifodalaydi.

Ruscha boshqaruv psixologiyasi terminlarini o'zbek tiliga tarjima qilish murakkab, ammo zarur jarayondir. To'g'ri va izchil tarjima ilmiy tafakkurning rivoji, ta'lim sifati va milliy terminologiyaning boyishiga xizmat qiladi. Shu bois tarjimada aniqlik, izchillik va ilmiy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqaruv psixologiyasi ilmiy fan sifatida samarali aloqa uchun aniq, standartlashtirilgan terminologiyani talab qiladi. Rus va o'zbek terminlarini taqqoslovchi leksikografik tahlil shuni ko'rsatadiki, til, semantika va madaniy farqlar to'g'ridan-to'g'ri tarjima va terminlarning qo'llanilishini qiyinlashtiradi. Shu sababli boshqaruv psixologiyasi bo'yicha o'zbek-rus va rus-o'zbek ikki tilli terminologik lug'atlar yaratilishi kerak, unda atamalarni qo'llash misollari, kontekstlari, sinonimlari va antonimlari bo'lishi zarur.

Boshqaruv psixologiyasi bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan barcha tarjima va mualliflik o'quv qo'llanmalari ekspertlar tomonidan terminologik tekshiruvdan o'tishi shart. Psixologiya va menejment sohasida ishlovchi tarjimonlar terminologiya va tushunchalarni madaniy moslashtirishga yo'naltirilgan maxsus kurslardan o'tishi lozim.

Psixologiya sohasida o'zbek ilmiy tilining milliy korpusini yaratish terminlarning qo'llanilishini kuzatish va ilmiy til rivojlanishidagi tendensiyalarni aniqlashga yordam beradi.

## XULOSA

Boshqaruv psixologiyasi sohasida interdisiplinar yondashuv, tarjima usullari va lingvistik xususiyatlar o'zbek va rus tillari terminologiyasini taqqoslash orqali chuqurroq o'rganilmoqda.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki:

- terminlarning 60% dan ortig'i bevosita ekvivalentlarga ega;
- qolgan terminlar qisman yoki to'liq yangi bo'lib, bu xatoliklarga yoki tarjimaning muqobil variantlariga olib keladi;
- kontekst, leksika va soha bo'yicha bilim tarjimada katta ahamiyatga ega.

Hozircha O'zbekistonda boshqaruv psixologiyasi sohasida keng qamrovli ikki tilli lug'atlar mavjud emas. Terminologik tarjima vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilish uchun tizimli sa'y-harakatlar talab etiladi: lug'atlar va izohli so'zliklar yaratishdan tortib, mutaxassislarni o'qitish va tarjimalarni standartlashtirishgacha.

Boshqaruv psixologiyasi bo'yicha ikki tilli terminologik lug'atlar yaratish, tarjimon va soha mutaxassislarining hamkorligini kuchaytirish hamda o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida termin yasash, ilmiy matnlarda izohli terminlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Faqat shu shartlar bajarilgandagina fan, texnika va boshqa ixtisoslashgan sohalarda aniq, tushunarli va professional muloqot ta'minlanishi mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hayitov O.E., Jalolova S.M. Boshqaruv psixologiyasi: o'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2008. – 184 b.
2. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi: o'quv qo'llanma. T.: 2019. – 117 b.
3. Salomov G'. Til va tarjima: o'quv qo'llanma. T.: "Fan" nashriyoti, 1996. – 108–115 b.
4. Danilenko V.P. Rus terminologiyasi. – M.: Nauka, 2007. – 246 b.
5. Kabanova I.A. Terminlarni tarjima nazariyasi va amaliyoti. – M.: Flinta, 2012. – 130 b.
6. Reformatskiy A.A. Tilshunoslikka kirish. – M.: Aspekt Press, 2006. – 536 b.
7. Newmark P. A Textbook of Translation. – Prentice Hall, 2008. – 292 b.
8. Sorokina T.L. Ilmiy-texnik matnlarni tarjima qilish masalalari. – M.: [nashriyot ko'rsatilmagan].

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №2(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.